



MINTAQALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI BAHOLASHNING TASNIFIY KO'RSATKICHLARINI ISHLAB CHIQISH

Ismatullayev Jasurbek

Qarshi davlat universiteti

ORCID: 0000-0002-3564-9278

jasurismatullayev1990@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqalarda investitsion jozibadorlikni baholashning tasnifiy ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, shu asosida Qashqadaryo viloyati tuman (shahar)larining investitsiya salohiyati va investitsion risk darajasi bo'yicha guruhlash amalga oshirilib, hududlarning investitsiya jozibadorligini ifodalovchi integral qiymati hisoblangan.

Kalit so'zlar: mintaq, investitsiya, investitsion salohiyat, investitsion risk, investitsiyaviy jozibadorlik, investitsion muhit, ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslari salohiyati.

РАЗРАБОТКА КЛАССИФИКАЦИОННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОЦЕНКИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ РЕГИОНОВ

Исматуллаев Жасурбек

Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье представлены классификационные показатели оценки инвестиционной привлекательности регионов. На их основе произведена группировка районов (городов) Кашкадарьинской области по уровню инвестиционного потенциала и инвестиционного риска, а также рассчитано интегральное значение, отражающее инвестиционную привлекательность территорий.

Ключевые слова: регион, инвестиции, инвестиционный потенциал, инвестиционный риск, инвестиционная привлекательность, инвестиционная среда, производственный, финансовый, трудовой ресурсный потенциал.

DEVELOPMENT OF CLASSIFICATION INDICATORS FOR ASSESSING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS

Ismatullaev Jasurbek

Karshi State University

Abstract. This article presents classification indicators for assessing the investment attractiveness of regions. Based on these indicators, the districts (cities) of the Kashkadarya region are grouped according to their level of investment potential and investment risk. Additionally, an integral value reflecting the investment attractiveness of the territories has been calculated.

Keywords: region, investment, investment potential, investment risk, investment attractiveness, investment environment, production, financial, labor resource potential.

Kirish.

Mamlakatlar iqtisodiyotiga zarur investitsiyalarni jalb qilish masalasi bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Iqtisodiyotda investitsiyalardan samarali va oqilona foydalanish uchun, avvalambor, investitsion qarorlarni qabul qilishdagi mezonlarni to'g'ri tanlash, milliy iqtisodiyotdagi investitsiyalar hajmiga hamda investitsiya jozibadorligiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini har tomonlama kompleks baholashga asoslangan murakkab jarayonni amalga oshirish lozim.

Respublikamizda so'nggi yillarda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratil-gan tartibga soluvchi islohotlarni amalga oshirish orqali biznes yuritish ko'rsat-kichlarini yaxshilash bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Ammo boshqa, bir qator ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakatning reyting ko'rsatkichlari yetarli darajada yuqori emas, bu esa investorlarning investitsion faolligini pasaytiradi va ishlab chiqaruvchilarni yangi ishlab chiqarish loyihalariga sarmoyalarni yo'naltirishida o'z biznesini boshlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday qilib, xalqaro investitsiya siyosatining hozirgi sharoitlari eng qulay investitsiya muhitini yaratish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarga, shu jumladan O'zbekiston iqtisodiyotiga ham investitsiyalarni jalb qilish uchun katta kuch talab qiladi. Investorlar odatda turli tadqiqot kompaniyalari va agentliklarining tahliliy ma'lumotlarini o'rganib, mamlakatlardagi investitsiya muhitini kuzatib boradilar.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi olim Limonov fikriga ko'ra (2004) mintaqa investitsion jozibadorligini baholashning to'g'ri amalga oshirilish natijalari investor uchun ham, mintaq (mamlakat) iqtisodiyoti uchun muhim hisoblanadi.

Levchenko, Ryabsev, Yanyushkinlarning fikriga ko'ra (2014) "Odatda xalqaro amaliyotda hudud, mintaq investitsion jozibadorligiga investorning belgilangan mintaqaga "kirishi" va u tomonidan investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan notijorat risklari yig'indisi sifatida qaraladi". Ammo investitsion jozibadorlikni obyektiv baholash uchun faqatgina notijorat risklarini e'tiborga olinishi yetarli emas.

Sharp, Aleksander va Beyli (2001) ushbu tushunchani kengroq qaragan holda mintaq investitsion jozibadorligini – "...mintaqaga kapital oqimi darajasini belgilovchi va investitsion faollik bilan belgilanadigan obyektiv iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy belgilar, vositalar, imkoniyatlar va cheklovlar yig'indisi" sifatida aniqlaydilar. Kapital oqimi intensivligi - mintaq investitsion faolligi deb qaraladi.

Tumusov (1999) investitsion salohiyatni kapitalni takror ishlab chiqarishning moliyaviy, moddiy va intellektual ehtiyojlarini ta'minlaydigan, real investitsion talabga aylantirsa bo'ladigan, investitsion bozorda potensial investitsion talab shaklida tasvirlangan, jamg'arilgan kapitalning tarkibiy qismi hisoblanadigan investitsion resurslarning yig'indisi sifatida qarab chiqqan.

Novikov (2001) mintaq investitsion jozibadorligining ikkinchi tarkibiy qismi, investitsiyalar va ulardan olinadigan daromadlarni yo'qotish ehtimolligini aks ettiruvchi – *investitsion risk* hisoblanadi. Investitsion risk umumiy iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, moliyaviy, ijtimoiy, jinoyatchilikka oid, ekologik va boshqa omillar bilan belgilaydi.

Iqtisodiyot sohasiga oid ko'plab adabiyotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, mintaqaning investitsiya muhitini baholashning metodologik yondashuvlari, tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar to'plami va miqdori, ularning sifatiy tavsiflari bilan farqlanadigan (tadqiqot maqsadlariga ko'ra) bir qator uslubiyotlari keltiriladi.

Ammo ushbu ko'rsatkichlar doirasi odatda investorlar e'tibor qaratadigan shartlar majmuini adekvat holda aks ettirish uchun yetarli darajada batafsil emas edi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Mustafakulovning (2017) ilmiy tadqiqotlarida investitsiya jozibadorligini baholashda investitsiya salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya qilingan, biroq ularning miqdoriy ifodasi aniq keltirib o'tilmagan.

Tadqiqotchi Valiyev (2021) esa hududlarning investitsion salohiyatini baholashda "...investitsiya faolligi, ishlab chiqarish, tabiiy resurs, iste'mol, mehnat, infratuzilma, institusional, ilmiy-ta'lim, eksport ko'rsatkichlari"dan foydalanishni taklif etgan.

Qobilovning (2020) tadqiqotlarida mintaqaning investitsiya salohiyatini baholashda ekspert baholash usuli qo'llanilgan bo'lib, har bir mezon bo'yicha quyidagi koeffitsiyentlar qo'llanilgan:

- investitsion faollik salohiyati - 20%;
- iqtisodiy rivojlanish va samaradorlik salohiyati - 15%;
- tabiiy-geografik salohiyati - 15%;
- infratuzilma salohiyati - 15%;
- mehnat resurslari salohiyati - 9%;
- tadbirkorlik faolligi salohiyati - 9%;
- tashqi iqtisodiy faollik salohiyati - 9%;
- moliyaviy salohiyati - 8%.

Biroq, mazkur tadqiqotchining ilmiy izlanishlarida investitsiya salohiyati bilan yonma-yon turgan, investitsiya jozibadorligiga ta'sir qiluvchi asosiy komponentlardan biri bo'lgan investitsiya riski e'tiborga olinmagan.

Hududlarning investitsion jozibadorligini baholashga qaratilgan biz tomonimizdan taklif etilayotgan uslubiyat mahalliy olimlarimizdan A. Qobilov tomonidan hududlarning investitsiya salohiyatini baholash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hududlarning investitsion jozibadorligini baholash borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarimiz hamda so'rovnomalar asosida shakllantirilgan ekspert baholashlar natijasida Qashqadaryo viloyati tuman(shahar)larining investitsion jozibadorligini baholash uchun asos qilib, hududning investitsiya salohiyatini ifodalovchi 8 ta mezon va 42 ta ko'rsatkich, shuningdek, hududning investitsiya riskini ifodalovchi 6 ta mezon va 21 ta ko'rsatkich tanlab olindi.

Hududlarning investitsion jozibadorligini baholash jarayoni bir nechta bosqichlarda amalga oshirildi.

1-bosqich. Investitsiya salohiyati va investitsiya riskini tavsiflovchi mezonlarning ko'rsatkichlari alohida-alohida hisob-kitob qilindi. Ayrim xususiy ko'rsatkichlar statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida to'g'ridan-to'g'ri shakllantirilgan bo'lsa, ba'zi ko'rsatkichlarni esa tegishli formulalar asosida hisoblash talab etildi (1-jadval va 2-jadval).

1-jadval

Qashqadaryo viloyati tuman(shahar)lari investitsion salohiyatini aniqlash bo'yicha ko'rsatkichlar tarkibi¹

Asosiy ko'rsatkichlar	Aniqlash uslubiyoti
1	2
Ishlab chiqarish va iste'mol salohiyati	
Jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari hajmi (K_1)	Statistika agentligi hisobotlarida mavjud.
Jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi (K_2)	
Jon boshiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (K_3)	
Jon boshiga to'g'ri keladigan qurilish pudrat ishlari hajmi (K_4)	

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi (K_5)	
Mintaqa aholisining iste'molga bo'lgan o'rtacha moyilligi (K_6)	$K_6 \frac{C}{R}$ bu yerda, C- iste'mol xarajatlari; R - aholining tasarrufidagi daromadi
Innovatsion -investitsion faollik salohiyati	
Tuman (shahar)ning viloyatdagi xorijiy korxonalar sonidagi ulushi (K_7)	$K_7 = \frac{XK_h}{XK_v} * 100$; bu yerda, XK_h – tuman (shahar)da faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy korxonalar soni ; XK_v – viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan jami xorijiy korxonalar soni.
Tuman(shahar)ning viloyat asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi (K_8)	Statistika agentligi hisobotlarida mavjud.
Jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (K_9)	
Tuman(shahar)ning viloyatda jami o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardagi ulushi (K_{10})	$K_{10} = \frac{TTXI_h}{TTXI_v} * 100$; bu yerda, $TTXI_h$ – joriy yilda tuman (shahar)da o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi; $TTXI_v$ – joriy yilda viloyatda o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar.
Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar sonida ilmiy-tadqiqot sohasida band bo'lgan xodimlarning ulushi (K_{11})	$K_{11} = \frac{IT_{Bs}}{JB_s}$; bu yerda, IT_{Bs} - ilmiy-tadqiqot sohasida band bo'lgan xodimlar soni; JB_s - iqtisodiyot tarmoqlarida jami bandlar soni.
Hududdagi ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan mablag'lar hajmi (K_{12})	$K_{12} = \frac{IT_{IM}}{K_E}$; bu yerda, IT_{IM} - hududdagi ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan mablag'lar; K_E – Engel koeffitsienti
Innovatsion faollik koeffitsiyenti (K_{13})	$K_{13} = \frac{TI_P}{A_s}$; bu yerda, TI_P – yangi texnologik ishlanmalar uchun olingan patentlar soni; A_s – intellektual mulk agentligiga guvohnoma, patent olish uchun topshirilgan arizalar soni.
Moliyaviy salohiyat	
Mintaqadagi pul massasi hajmi (K_{14})	$K_{14} = \frac{P_M}{K_E}$; bu yerda P_M – mintaqadagi pul massasi miqdori; K_E – Engel koeffitsiyenti
Biznes subyektlarining faollik koeffitsiyenti (K_{15})	$K_{15} = \frac{B_p}{P_M}$; bu yerda, B_p – biznes subyektlari “qo'lida”gi pul miqdori; P_M – mintaqadagi pul massasi miqdori
Biznes subyektlarining rentabellik koeffitsiyenti (K_{16})	$K_{16} = \frac{\sum BS_F}{\sum BS_{yat}}$; bu yerda, BS_F – biznes subyektlarining foyda miqdori; BS_{yat} – biznes subyektlarining yalpi tushumi.
Jon boshiga to'g'ri keladigan byudjet daromadlari hajmi (K_{17})	$K_{17} = \frac{D}{AS}$; bu yerda, D- hududning byudjet daromadi; AS – hududdagi aholi soni
Jon boshiga to'g'ri keladigan byudjet xarajatlari hajmi (K_{18})	$K_{18} = \frac{X}{AS}$; bu yerda, X- hududning byudjet xarajatlari; AS – hududdagi aholi soni
Har 100, 0 ming kishiga to'g'ri keladigan tijorat banklari va filiallari soni (K_{19})	$K_{19} = \frac{TB}{\frac{AS}{100000}}$; bu yerda, TB – hududdagi tijorat banklari filiallari soni; AS – hududdagi aholi soni;
Hududdagi soliq yuki darajasi (K_{20})	$K_{20} = \frac{S+MT}{Y_{aHM_h}}$; bu yerda, S – tadbirkorlik subyektlari tomonidan hudud mahalliy byudjetiga to'langan soliqlar summasi;

35

Hududdagi oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan band aholining salmog'i (K_{33})	$K_{33} = \frac{OO'MA}{AS}$; bu yerda, OO'MA – hududdagi oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan band aholi soni; AS – jami aholi soni
Infrastruktura salohiyati	
Hududning bog'langanlik darajasi (K_{34})	$K_{34} = \frac{AY+TY}{K_E}$; bu yerda, AY-hududdagi avtomobil yo'llarining uzunligi (ichki yo'llardan tashqari); TY – hududdagi temir yo'lining uzunligi; K_E – Engel ko'effitsiyenti
Hududning gaz tarmog'i bilan ta'minlanganlik darajasi (K_{35})	$K_{35} = \frac{GazT}{K_E}$; bu yerda, GazT – hududdagi gaz tarmog'ining uzunligi; K_E – Engel ko'effitsiyenti
Hududning ichimlik bilan ta'minlanganlik darajasi (K_{36})	$K_{36} = \frac{SuvT}{K_E}$; bu yerda, SuvT – hududdagi suv tarmog'ini uzunligi K_E – Engel ko'effitsiyenti
Hududning oqova suv tizimi bilan ta'minlanganlik darajasi (K_{37})	$K_{37} = \frac{KanT}{K_E}$; bu yerda, KanT – hududdagi kanalizatsiya tarmog'ining uzunligi; K_E – Engel ko'effitsiyenti
Hududdagi har ming kishiga to'g'ri keladigan ijtimoiy infratuzilma obyektlari sonini ifodalovchi ko'effitsiyent (K_{38})	$K_{38} = \frac{II_s}{\frac{AS}{1000}}$; bu yerda, II_s – hududdagi mavjud ijtimoiy infratuzilma obyektlari soni; AS – hududdagi jami aholi soni.
Hududdagi har 100 ta tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keladigan bozor infratuzilmasi obyektlari sonini ifodalovchi ko'effitsiyent (K_{39})	$K_{39} = \frac{BI_s}{\frac{TS_s}{100}}$; bu yerda, BI_s – hududdagi mavjud bozor infratuzilmasi obyektlari soni; TS_s – hududdagi jami tadbirkorlik subyektlari soni.
Tabiiy-geografik va resurs salohiyati	
Hudud markazidan tashqi savdo uchun eng yaqin dengiz portigacha bo'lgan masofa (K_{40})	$K_{40} \in [0; 1]$ – balli baho;
Hududning mineral xomashyo zaxiralari bilan ta'minlanganlik darajasi (uglevodorod resurslaridan tashqari) (K_{41})	$K_{41} = \frac{MXZ}{K_E}$; bu yerda, MXZ – mineral xomashyo zaxiralari, ming tonna K_E – Engel ko'effitsiyenti
Hududning qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yer resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi (K_{42})	$K_{42} = \frac{YerM_q}{YerR} * 100$; bu yerda, -YerM _{q/x} - qishloq xo'jalik uchun foydalaniladigan yer maydoni; YerR – jami yer resurslari;

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Soshkina (1999) tomonidan hududlarning maydon jihatidan kattaligi va aholi sonining ta'sirini kamaytirish maqsadida bir qator ko'rsatkichlarni hisoblashda Engel ko'effitsiyentidan foydalaniladi va ushbu ko'effitsiyent quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$K_e = \sqrt{HM * AS} \quad (1)$$

bu yerda –HM- har bir hudud (tuman (shahar)ning maydoni, ming kv.km;
AS – aholi soni, ming kishi.

**Qashqadaryo viloyati tuman(shahar)lari investitsiya risk(xatar)ini
aniqlash bo'yicha ko'rsatkichlar tarkibi**

Asosiy ko'rsatkichlar	Aniqlash uslubi
1	2
Iqtisodiy risk	
Asosiy fondlarning chiqib ketish koeffitsiyenti (K_1)	$K_1 = \frac{ChK_{af}}{O'YQ_{af}}$; bu yerda, ChK_{af} – hisobot davrida chiqib ketgan asosiy fondlar qiymati; $O'YQ_{af}$ – hisobot davridagi asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati
Hududdagi har 100 ta tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keladigan zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar sonini ifodalovchi koeffitsiyent (K_2)	$K_2 = \frac{K_{zk}}{TS_s}$; bu yerda, K_{zk} – hududdagi zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar soni; TS_s – hududdagi jami tadbirkorlik subyektlari soni.
Bozor talabining nomuvofiqlik koeffitsiyenti (K_3)	$K_3 = \frac{AS}{AD}$; bu yerda, AS – hududdagi jami taklif hajmi; AD – hududdagi jami talab hajmi.
Hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan sanoat korxonalarining hisobot davrida yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami sanoat korxonalari sonidagi ulushi (K_4)	$K_4 = \frac{SK_{yk}}{SK_{ro'}}$; bu yerda, SK_{yk} – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan sanoat korxonalari soni; $SK_{ro'}$ – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami sanoat korxonalari soni.
Hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan qishloq xo'jalik korxonalarining hisobot davrida yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami qishloq xo'jalik korxonalari sonidagi ulushi (K_5)	$K_5 = \frac{QXK_{yk}}{QXK_{ro'}}$; bu yerda, QXK_{yk} – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan qishloq xo'jalik korxonalari soni; $QXK_{ro'}$ – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami qishloq xo'jalik korxonalari soni.
Hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan savdo korxonalarining hisobot davrida yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami savdo korxonalari sonidagi ulushi (K_6)	$K_6 = \frac{SavK_{yk}}{SavK_{ro'}}$; bu yerda, $SavK_{yk}$ – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan savdo korxonalari soni; $SavK_{ro'}$ – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami savdo korxonalari soni.
Ijtimoiy risk	
Hududdagi ishsizlik darajasi (K_7)	$K_7 = \frac{Ishsiz_s}{IFA_s}$; bu yerda, $Ishsiz_s$ – hududdagi ishsizlar soni; IFA_s – hududdagi iqtisodiy faol aholi soni
Demografik yuklama koeffitsiyenti (K_8)	$K_8 = \frac{(M_{lyas} + M_{lyyas})}{M_{LAS}}$; bu yerda, M_{lyas} – hududdagi mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi soni; M_{lyyas} – hududdagi mehnatga layoqatli yoshdan yuqori bo'lgan aholi soni; M_{LAS} – hududdagi mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni.
Hududdagi har ming kishiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol xarajatlari ($minIX$) dan past daromadga ega bo'lgan aholi ulushi (K_9)	$K_9 = \frac{AS_{minIX}}{AS}$; bu yerda, AS_{minIX} – hududdagi $minIX$ dan past daromadga ega bo'lgan soni; AS – hududdagi jami aholi soni.
Moliyaviy risk	
Hududdagi inflyatsiya darajasi (K_{10})	$K_{10} = \frac{I_{INI1} - I_{INI0}}{I_{INI0}}$; bu yerda, I_{INI1} – mintaqadagi joriy davrdagi iste'mol narxlar indeksi; I_{INI0} – mintaqadagi bazis davrdagi iste'mol narxlar indeksi.
Mahalliy byudjet taqchilligini ifodalovchi ko'rsatkich (K_{11})	$K_{11} = \frac{BD - BX}{YaHM}$; bu yerda, BD – mahalliy byudjet daromadlari; BX – mahalliy byudjet xarajatlari; $YaHM$ – yalpi hududiy mahsulot.

Muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning jami kreditor qarzdorlikdagi ulushi (K ₁₂)	$K_{12} = \frac{KQ_{mo'}}{KQ_j}$; bu yerda, KQ _{mo'} – muddati o'tgan kreditorlik qarzdorlik; KQ _j – jami kreditorlik qarzdorlik.
Boshqaruv riski	
Davlat xizmatlari yagona interaktiv portalida ro'yxatga kiritilmagan xizmatlarning jami davlat xizmatlaridagi ulushi (K ₁₃)	$K_{13} = \frac{DX_{rk}}{DX_j}$; bu yerda, DX _{rk} – yagona interaktiv portalda ro'yxatga kiritilmagan xizmatlar soni; DX _j – jami davlat xizmatlari soni.
Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan E-qaror yagona elektron tizimida ro'yxatdan o'tkazilmagan qarorlarning jami qabul qilingan qarorlardagi ulushi (K ₁₄)	$K_{14} = \frac{Q_{mh}}{Q_j}$; bu yerda, Q _{mh} – mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan E-qaror yagona elektron tizimida ro'yxatdan o'tkazilmagan qarorlar soni; Q _j – mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan jami qarorlar soni.
Davlat xaridlari elektron tizimi orqali amalga oshirilmagan davlat xaridlarining jami davlat xaridlaridagi ulushi (K ₁₅)	$K_{15} = \frac{DX_{ET}}{DX_h}$; bu yerda, DX _{ET} – Davlat xaridlari elektron tizimi orqali amalga oshirilmagan davlat xaridlari hajmi; DX _h – jami davlat xaridlari hajmi.
Ekologik risk	
Ekologik oqibatlarni bartaraf qilish va utilizatsiyalash uchun ajratilgan sarf-xarajatlarning mahsulot ishlab chiqarish xarajatlardagi ulushi (K ₁₆)	$K_{16} = \frac{U_x}{ICH_x}$; bu yerda, U _x – ekologik oqibatlarni bartaraf qilish va utilizatsiyalash uchun ajratilgan sarf-xarajatlar miqdori; ICH _x – mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari miqdori.
Atmosferaga va atrof-muhitga chiqarilgan ekologik xavfli mahsulot va chiqindilarning fizik hajmi koeffitsiyenti (K ₁₇)	$K_{17} = \frac{Ch_{fx}}{K_E}$; bu yerda, Ch _{fx} – atmosferaga va atrof-muhitga chiqarilgan ekologik xavfli mahsulot va chiqindilarning fizik hajmi; K _E – Engel koeffitsiyenti.
Jinoiy risk	
Hududdagi har 100 ming kishiga to'g'ri keladigan jinoyatlar soni (K ₁₈)	$K_{18} = \frac{J_s}{\frac{AS}{100000}}$; bu yerda, J _s – hududdagi jinoyatlar soni; AS – hududdagi jami aholi soni.
Hududdagi har 100 ming kishiga to'g'ri keladigan iqtisodiy jinoyatlar soni (K ₁₉)	$K_{19} = \frac{IJ_s}{\frac{AS}{100000}}$; bu yerda, IJ _s – hududda amalga oshirilgan iqtisodiy jinoyatlar soni; AS – hududdagi jami aholi soni.
Hududdagi jami jinoyatlar sonida iqtisodiy jinoyatlarning ulushi (K ₂₀)	$K_{20} = \frac{IJ_s}{J_s}$; bu yerda, IJ _s – hududda amalga oshirilgan iqtisodiy jinoyatlar soni; J _s – hududdagi jami jinoyatlar soni.
Hududdagi jami jinoyatlar sonida avtohalokatlarining ulushi (K ₂₁)	$K_{21} = \frac{AH_s}{J_s}$; AH _s – hududda sodir bo'lgan avtohalokatlar soni; J _s – hududdagi jami jinoyatlar soni.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-bosqich. Qashqadaryo viloyatining har bir hududi bo'yicha tegishli mezonlar tarkibidagi xususiy ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirish (2) formula asosida hisoblandi (natijalar 1-8-ilovalarda keltirilgan).

$$X_{ij} = \frac{X_{ij} - X_{mini}}{X_{maxi} - X_{mini}} \quad (2)$$

bu yerda: X_{ij}-j-tuman (shahar)ning i-ko'rsatkichi; X_{mini}- i ko'rsatkichning kuzatilgan minimal qiymati; X_{maxi}- i ko'rsatkichning kuzatilgan maksimal qiymati;

3-bosqich. Har bir hudud tegishli ko'rsatkichlarning integral qiymatlari asosida (3) formula yordamida tanlangan mezonlarning yig'indi qiymati hisoblandi va har bir mezon (investitsiya salohiyati va investitsiya riski) bo'yicha hududning yakuniy integral bahosi chiqarildi.

$$S_j = \sum_{i=1}^n X_j * K_y \quad (3)$$

bu yerda S_j - tanlangan mezon bo'yicha hududning yakuniy integral bahosi; X_j - hududning j ko'rsatkichining koeffitsiyenti; n - tanlangan mezonga tegishli ko'rsatkichlar soni; K_y - tegishli ko'rsatkichlarning tanlangan mezondagi vazn qiymati.

Investitsion salohiyatni xarakterlovchi 8 ta mezon hamda investitsiya riskini ifodalovchi 6 ta mezon tarkibidagi ko'rsatkichlarning vazn qiymati barcha ko'rsatkichlar uchun teng qiymatda $K_y = \frac{1}{n}$ tartibda berilgan bo'lsa, hududlarning tabiiy-geografik va resurs salohiyatini baholashda 3 ta ko'rsatkich uchun 0,1;0,6;0,3 koeffitsiyentlari qo'llanildi. Har bir mezon, ya'ni hududlarning investitsiya salohiyati va investitsiya riski bo'yicha tuman(shahar)larning integral baho ko'rsatkichlariga asosan, tuman (shahar)lar 3 guruhga ajratildi va bunda baho ko'rsatkichlari eng yuqori bo'lgan tuman(shahar)lar tanlangan mezon bo'yicha "yuqori", "o'rtacha" va eng quyi natijalarni qayd etgan hududlar esa "past" salohiyatli va riskli guruhlarga ajratildi.

Qashqadaryo viloyati hududlarining **ishlab chiqarish va iste'mol salohiyati** 6 ta ko'rsatkich bo'yicha tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu mezon bo'yicha Muborak, Qarshi shahri, Mirishkor, "yuqori salohiyat"ga, Nishon, Ko'kdala G'uzor Koson, Shahrisabz, Qarshi, Kasb "o'rta salohiyat"ga ega hududlar tarkibiga kirgan bo'lsa, Kitob, Qamashi, Yakkabog', Chiroqchi, Dehqonobod tumanlari va Shahrisabz shahri "past salohiyatli" hududlar sifatida qayd etildi.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, hududlarning **innovatsion-investitsion faollik salohiyatini ifodalovchi** 7 ta ko'rsatkich bo'yicha Qarshi shahri, G'uzor, Muborak tumanlarining "yuqori salohiyat"ga, Dehqonobod, G'uzor Kitob, Nishon, Qarshi, Kasbi, Shahrisabz, Chiroqchi, Koson "o'rta salohiyat"ga ega tumanlari, Yakkabog', Qamashi, Mirishkor, Shahrisabz, Chiroqchi hamda Ko'kdala tumanlari Shahrisabz shahrining, "past salohiyat"ga ega ekani kuzatildi.

Muborak tumani Qarshi va Shahrisabz shaharlari yirik va ko'p sonli soliq to'lovchi subyektlarga ega ekanligi **bilan moliyaviy salohiyat** bo'yicha viloyat hududlari orasida yetakchi bo'lib turgan bo'lsa, Mirishkor, Nishon, Koson, Yakkabog' "o'rta salohiyat"li, Shahrisabz, Kasbi, Kitob, Chiroqchi, Qamashi, Qarshi va Ko'kdala tumanlarining ushbu mezon bo'yicha past ko'rsatkichlari qayd etilgan.

Tashqi iqtisodiy faollik mezoni bo'yicha tahlil qilingan 5 ta ko'rsatkichlar bo'yicha Qarshi shahri, Qarshi, va Koson tumanlarining yuqori salohiyatga ega ekanligi kuzatilgan bo'lsa, Kitob, Kasbi, G'uzor, Muborak, Nishon tumanlari "o'rta salohiyat"li hududlar toifasiga Yakkabog', Dehqonobod, Qamashi, Mirishkor, Shahrisabz, Chiroqchi, Ko'kdala tumanlari va Shahrisabz shahrining "past salohiyat"li hududlar qatoriga kirgan.

Tadbirkorlik faolligi mezoni bo'yicha esa Qarshi shahri, Muborak, Mirishkor va Shahrisabz shahrining yuqori salohiyatli, Nishon, Dehqonobod, Koson, Qarshi, Kitob, Qamashi, Yakkabog' o'rta salohiyatli, Kasbi, G'uzor, Chiroqchi, Shahrisabz va Ko'kdala tumanlari "past salohiyat"ga ega hududlar qatorida aniqlandi.

Mehnat resurslari salohiyati mezoni bo'yicha Muborak, Mirishkor, Qarshi shahri "yuqori salohiyat"ga ega bo'lsa, Dehqonobod, Shahrisabz sh, Qarshi, Yakkabog', G'uzor, Qamashi "o'rta salohiyat"ga ega bo'lsa, Kitob Nishon, Kasbi, Koson, Shahrisabz, Chiroqchi va Ko'kdala tumanlari "past salohiyat"ga ega.

Hududlarning **infratuzilma salohiyati** 6 ta ko'rsatkich bo'yicha tahlil qilinganda, Qarshi shahri va tumani, Kasbi va Yakkabog' tumanlaridagi infratuzilma obyektlarining rivojlanish darajasi viloyat hududlari orasida yaxshiligi, Shahrisabz sh, Muborak, Nishon, Qamashi, Mirishkor, Shahrisabz tumanlarida o'rta darajada ekanligi, Koson, Chiroqchi, Kitob, G'uzor, Dehqonobod va Ko'kdala tumanlaridagi infratuzilma obyektlarining rivojlanish darajasi pastligi aniqlandi.

Hududlarning 3 ta ko'rsatkichni o'zida mujassamlashtirgan **tabiiy-geografik va resurs salohiyati** mezonini bo'yicha holati o'rganilganda Dehqonobod, Muborak, Mirishkor, G'uzor tumanlarining yuqori salohiyatga, Koson, Chiroqchi, Nishon, Kitob, Kasbi, Qarshi, Ko'kdala o'rta salohiyatga, Qamashi, Yakkabog', Shahrisabz tumanlari Qarshi va Shahrisabz shaharlarining past salohiyatga ega ekani kuzatilgan.

Qashqadaryo viloyati hududlarining investitsiya riskka moyillik darajasini o'rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotlarimizda hududlarning moyilligi 6 ta mezon va unga mos ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi. (3-jadval).

3-jadval

**Qashqadaryo viloyati tuman (shahar)larining investitsion risk mezonlari
bo'yicha guruhlanishi (2022-yil)**

Yuqori risklilik (A)	O'rta risklilik (C)	Past risklilik (E)
Iqtisodiy risk		
Ko'kdala, Chiroqchi, Dehqonobod.	Yakkabog', Qamashi, Shahrisabz, Nishon, Kasbi, Koson, Shahrisabz sh.	G'uzor, Qarshi, Kitob, Qarshi sh., Muborak, Mirishkor.
Ijtimoiy risk		
Kasbi, Nishon.	Dehqonobod, Ko'kdala, Chiroqchi, Qarshi, Mirishkor, G'uzor, Kitob, Koson, Shahrisabz.	Yakkabog', Qamashi, Qarshi sh, Shahrisabz sh, Muborak.
Moliyaviy risk		
Ko'kdala, Chiroqchi, Mirishkor.	Dehqonobod, G'uzor, Koson, Nishon, Kitob, Qamashi, Yakkabog', Shahrisabz, Kasbi.	Qarshi sh, Shahrisabz sh, Qarshi t, Muborak.
Boshqaruv riski		
-	Chiroqchi, Ko'kdala, Mirishkor, Kasbi, Ko'kdala, Koson, G'uzor, Dehqonobod, Nishon, Qamashi, Muborak.	Qarshi, Shahrisabz, Yakkabog', Qarshi sh, Shahrisabz sh.
Ekologik risk		
Muborak, G'uzor, Nishon.	Koson, Qamashi, Kitob, Kasbi, Mirishkor, Chiroqchi, Ko'kdala.	Shahrisabz, Yakkabog', Qarshi sh, Qarshi, Shahrisabz sh.
Jinoiy risk		
-	Chiroqchi, Koson, Dehqonobod, Qamashi, Mirishkor, Nishon, Kasbi, Ko'kdala, G'uzor.	Yakkabog', Kitob, Shahrisabz, Qarshi, Muborak, Qarshi sh, Shahrisabz.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4-bosqich. Barcha tuman(shahar)larning investitsion salohiyati va investitsiya riskining yakuniy qiymatlari (4) formula yordamida hisoblandi va ushbu qiymatlarga asosan viloyatning tuman(shahar)lari tanlangan barcha mezonlar bo'yicha guruhlariga ajratildi. (4) formuladan ham hududning investitsiya salohiyatini, ham investitsiya riskini hisoblashda bir xilda foydalanish mumkin bo'lgani uchun chalkashliklarni oldini olish maqsadida takroran keltirib o'tilmadi.

5-bosqich. Keyingi bosqichda Qashqadaryo viloyatining har bir hududi (tuman (shahar)) bo'yicha investitsiya salohiyati va investitsiya riskini ifodalovchi hududlarning yakuniy bahosi (4) formulaga asosan alohida-alohida hisoblab chiqildi.

$$I_j = \sum_{i=1}^n S_j * K_y \quad (4)$$

bu yerda I_j –investitsion salohiyat (investitsiya riski) bo'yicha j hududning yakuniy bahosi; S_j - tanlangan mezon bo'yicha hududning yakuniy integral bahosi; K_y –tegishli mezonning investitsion salohiyat (investitsiya risk)dagi vazn qiymati.

6-bosqich. Yakuniy bosqichda quyidagi (5) formulaga asosan hududlarning investitsiya salohiyati va investitsiya riski bo'yicha hisoblangan yakuniy qiymatlariga tayanib, hududlarning investitsiya jozibadorligini ifodalovchi integral qiymati hisoblandi. Mazkur integral qiymatni aniqlash uchun investitsion jozibadorlikning hududning investitsiya salohiyatiga to'g'ri, investitsiya riskiga esa teskari bog'lanishda ekanligini inobatga olgan holda makroiqtisodiy tahlilda keng foydalaniladigan Paashe va Laspeyres indekslarining kamchiliklarini yumshatish uchun ishlab chiqilgan Fisher indeksini hisoblash amaliyotiga tayanilib, (5) formulani ishlab chiqildi.

$$I_j = \sqrt{I_s * \frac{1}{I_r}} \quad (5)$$

Bu yerda: I_j – muayyan hududning investitsion jozibadorligini ifodalovchi yakuniy integral qiymat (indeks);

I_s – investitsion salohiyat bo'yicha muayyan hududning yakuniy bahosini ifodalovchi integral qiymat (indeks);

I_r – investitsiya riski bo'yicha muayyan hududning yakuniy bahosini ifodalovchi integral qiymat (indeks).

Ilmiy izlanishlar natijasida tanlangan mezonlarning Qashqadaryo viloyati hududlarining investitsion salohiyatidagi vazn qiymati ekspert baholash usulida aniqlandi va har bir mezon bo'yicha quyidagi koeffitsiyentlar qo'llanildi: innovatsion-investitsion faollik salohiyati - 20%; ishlab chiqarish va iste'mol salohiyati - 15%; tabiiy-geografik va resurs salohiyat - 15%; infrastruktura salohiyati - 15% mehnat resurslari salohiyati - 9%; tadbirkorlik faolligi salohiyati - 9%; tashqi iqtisodiy faollik salohiyati - 9%; moliyaviy salohiyat - 8%.

Qashqadaryo viloyati hududlariga investitsiyalarni jalb qilishda yuzaga kelgan investitsion riskni ifodalovchi mezonlarning vazn qiymatlari o'tkazilgan anketa so'rov natijalari va ekspert baholash usullaridan kelib chiqib har bir mezon bo'yicha quyidagicha belgilab olindi: iqtisodiy risk – 20%; ijtimoiy risk – 20%; moliyaviy risk – 15%; boshqaruv riski -20 %; ekologik risk – 17%; jinoiy risk – 8%.

Investitsion jozibadorlikni baholash natijalariga ko'ra, 2022-yilda yuqori investitsion faollikka ega ekani, boy tabiiy resurslarning mavjudligi, qulay geografik joylashuv, iqtisodiy rivojlanish va samaradorlikning yuqoriligi va infrastruktura obyektlari bilan yetarli darajada ta'minlanganlik holatlaridan kelib chiqib, Qarshi shahri, Muborak, Nishon, Kasbi va Mirishkor tumanlari yuqori investitsion jozibadorlikka ega hududlar safiga kiritildi (4-jadval).

Qashqadaryo viloyati tuman(shahar) larining investitsiya salohiyati va investitsion risk darajasi bo'yicha guruhlanishi (2022 yil)

Tuman (shahar)lar	Investitsiya salohiyati bo'yicha yakuniy integral qiymat (indeks)	Investitsion risk bo'yicha yakuniy integral qiymat (indeks)	Investitsion jozibadorlikni ifodalovchi yakuniy integral qiymat (indeks)
Qarshi sh.	0,66578	0,78525	0,92079
Muborak	0,624043	0,79712	0,88480
Nishon	0,442066	0,77231	0,75657
Kasbi	0,340247	0,76524	0,66680
Mirishkor	0,329937	0,74234	0,66667
Qarshi t.	0,310934	0,81023	0,61948
Dehqonobod	0,309695	0,83121	0,61039
G'uzor	0,268799	0,89265	0,5487
Kitob	0,219886	0,91456	0,49033
Shahrisabz sh	0,205506	0,90894	0,47549
Ko'kdala	0,204538	0,91002	0,47409
Yakkabog'	0,203977	0,91024	0,47338
Koson	0,202114	0,91109	0,47099
Qamashi	0,162526	0,80034	0,45063
Shahrisabz t.	0,154957	0,82045	0,43459
Chiroqchi	0,125205	0,84365	0,38524

Manba: Yuqorida keltirilgan 5 formulaga asosan muallif tomonidan hisoblab chiqilgan..

Xulosa va takliflar.

Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini baholashning biz taklif etayotgan metodologik yondashuvi hududlarning investitsion jozibadorligi faqatgina hududlarning investitsion salohiyati bilan bog'liq emasligini, balki hududlarga investitsiyalarni jalb qilishdagi investitsiya riski ham unga ta'sir etuvchi muhim komponentlardan biri ekanligini namoyon etadi hamda hududlarning investitsiya salohiyati ustunliklari, investitsion salohiyatni samarali boshqarish yo'nalishlarining hududlardagi investitsiya risklarini kamaytirish yo'llari va imkoniyatlari bilan o'zaro bog'liqligini mazmunan va tarkibiy jihatdan batafsil ochib beradi. Fikrimizcha, tuman (shahar) larning investitsion jozibadorligini muntazam ravishda yil yakunida baholab borish hamda tuman (shahar)larning reytingini maxsus investitsion portalda e'lon qilish xorijiy investorlarga qulaylik yaratish bilan birgalikda, tuman (shahar) hokimliklarining investitsiyalarni jalb qilish borasidagi faoliyati samaradorligini baholash imkonini beradi.

- Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotiga investitsiya kirituvchi investorlar manfaatlarini hisobga olgan holda tuman (shahar)larining investitsion salohiyati to'liq o'zida aks ettirgan investitsion pasportni ishlab chiqish va ushbu investitsion pasportlarini mahalliy boshqaruv organlarining maxsus saytlarida joylashtirib, muntazam yangilab borish;

-har yil yakuni bo'yicha tuman (shahar)larning investitsion salohiyatini baholash ishlarini tashkil qilish va shu asosda mahalliy boshqaruv organlari faoliyatiga baho berish tizimini tashkil qilish maqsadga muvofiq.

-xorijiy va mahalliy investorlar bilan ishlashda qulaylik yaratish maqsadida viloyatda "loyiha ofisi"ni yaratishga mo'ljallangan alohida markaz tashkil etish va ushbu markazda har bir tuman (shahar)ning investitsion salohiyatidan kelib chiqqan holda, hududlarning "o'sish nuqtalari"ni belgilab beruvchi istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish;

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Валиев Б.Б. Ўзбекистонда ҳудудлар иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини ошириш механизми: И.ф.д. (Doctor of science) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Тошкент 2021. – 80 б.;

Қобилов А. Қашқадарё вилояти ҳудудларининг инвестицион салоҳиятини баҳолаш// “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. №5, октябрь, 2020 йил.

Левченко Т.П., Рябцев А.А., Янющкин В.А. (2014) Управление инвестиционной привлекательностью в туристско-рекреационной сфере: Монография. –М.: НИЦ ИНФРА-М., 162 с.

Лимонов Л.Э. (2004) Крупный город: регулирование территориального развития и инвестиционные стратегии. СПб.: Наука, -478 с.

Новиков А.В. (2001) Инвестиционная привлекательность региона. Новосибирск: НГАЭиУ, -141 с.

Сошникова И. и др. Многомерный статический анализ в экономике. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 1999. –С. 598.

Тумусов Ф.С. (1999) Инвестиционный потенциал региона: Теория.Проблемы. Практика. М.: Экономика, -267 с.

Ш.И.Мустафакулов Инвестицион муҳит жозибадорлиги. Илмий-амалий қўлланма. ВАКТРИYA PRESS нашриёти, Тошкент.: 2017 йил. 42-бет

Шарп У.Ф., Александер Г.Дж., Бейли Дж.В. (2001) Инвестиции. – пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, – 1028 с.